2-ilova

Talabalar va professor-o‘qituvchilar, bitiruvchilar va ish beruvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish
TARTIBI

Talabalar va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish – bu ta’lim sifatini ichki baholashning eng muhim vositasidir.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Reglament Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti (keyingi o‘rinlarda – TDShU) ta'lim sifatini baholash, monitoring qilish va uzluksiz yaxshilash maqsadida turli manfaatdor tomonlar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish tartib-qoidalarini belgilaydi.

1.2. So‘rovnomalar o‘tkazish – bu ta'lim sifatini ichki baholashning eng muhim vositasi bo‘lib, quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi. So‘rovnomalar o‘tkazish va natijalarni monitoring qilish o‘quv jarayoni, dasturlar va xizmatlar sifatini baholashga, talabalar, professor-o‘qituvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarning ehtiyojlari va fikrlarini aniqlashga, ta'lim sifatini yaxshilash bo‘yicha aniq tavsiyalar va chora-tadbirlar ishlab chiqishga, universitet strategik maqsadlari va reytinglar (QS, THE) talablariga javob berishga hamda xalqaro akkreditatsiya standartlari asosida ta'lim sifati dalillarini to‘plashga va ular asosida ta’lim dasturlarini sifat va kompetensiya jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga yaqindan yordam beradi.

1.3. So‘rovnomalar ta’lim dasturlaridan manfaatdor tomonlarning barchasi bilan olib boriladi. Jumladan, Talabalar (barcha kurs va yo‘nalishlarda); Professor-o‘qituvchilar (doimiy va vaqtinchalik); Bitiruvchilar (oxirgi 5 yil davomida bitirgan); Ish beruvchilar (universitet bitiruvchilarini ishga olgan kompaniyalar va tashkilotlar hamda talabalar amaliyot o‘tagan davlat va nodavlat tashkilotlar); Ota-onalar (talabalarning qonuniy vakillari); Xalqaro hamkorlar va visiting professorlar (amaliyotchilar va tashrif buyuruvchi professorlar); Universitetning ma'muriy va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlari; Universitet kengashi a'zolari.

1.2. So‘rovnomalar **anonimlik**, **ixtiyoriylik** va **xolislik** tamoyillari asosida o‘tkaziladi.

2. So‘rovnoma turlari va davriyligi

2.1. Talabalar uchun:

“Professor-o‘qituvchi talaba nigohida”: Har semestr yakunida (yakuniy nazoratlardan oldin) @HemisProBot telegram boti orqali anonim tarzda so‘rovnoma

tashkil qilinadi. Ushbu bot Hemis platformasi bilan to‘g’ridan to‘g’ri integratsiya qilingan bo‘lib, talabalarga har dars yakunida fan ustozini baholash uchun avtomatik tarzda eslatma keladi. Va ular professor-o‘qituvchini maxsus kiritlgan savollarga javob berish orqali baholaydi

“Ta’lim dasturidan qoniqish darajasi”: Har semestr yakunida Universitet talabalarining ta’lim sifati bo‘yicha fikrlarini o‘rganish, ta’lim jarayonining turli jihatlarini baholash, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash hamda ta’lim sifatini oshirish va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida Google forma orqali maxsus ishlab chiqilgan anketa so‘rovnomalarga javob berishadi. Natijalar avtomatik tarzda tahlil qilinadi. Tahlil natijalari o‘rganilib, kamchiliklar bartaraf etish uchun mas’ullarga va kafedra hamda boshqa bo‘limlarga yuboriladi. So‘rovnoma ta’lim sifati, o‘quv dasturlari, infratuzilma, amaliyot va bitiruvchilarga ko‘rsatilgan yordamni baholashga qaratilgan bo‘lib 10 dan ortiq muhim savollar orqali barcha muhim masalalar qamrab olinadi.

Shuningdek, talabalar orasida ta’slim sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi muammo, shikoyat, taklif va fikrlarni o‘rganish, universitet va talabalar o‘rtasidagi muloqotning uzviyligini ta’minlash uchun alohida murojaatlarni ko‘rib chiqish maqsadida @TDSHU_Sifatbot telegram boti ham yo‘lga qo‘yilgan.

“Universitetdagi ijtimoiy muhit va infratuzilma”: Yiliga bir marta universitetda talabalarning fikrini muntazam o‘rganish va mavjud muammolarni aniqlash maqsadida tizimli ravishda tashkil etiladi. Mazkur so‘rovnoma talabalarning ta’lim jarayoni, yashash va o‘qish sharoitlari, ijtimoiy muhit, infratuzilma holati hamda xizmatlar sifati bo‘yicha fikr va takliflarini yig‘ishga xizmat qiladi. So‘rovnoma o‘tkazish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Avvalo, so‘rovnoma savollari ishlab chiqiladi va dolzarb masalalarni qamrab olishi ta’minlanadi. Savollar odatda ta’lim sifati, auditoriyalar va kutubxonalar holati, talabalar turar joyi, internet sifati, ovqatlanish shoxobchalari, xavfsizlik, transport, ijtimoiy muhit va talabalar bilan ishlash tizimi kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Shundan so‘ng so‘rovnoma zamonaviy raqamli platformalar: Telegram botlari va Google Forms orqali talabalarga taqdim etiladi. Bu usul respondentlar uchun qulaylik yaratib, keng qamrovni ta’minlaydi.

So‘rovnoma anonim tarzda o‘tkazilishi talab etiladi, bu esa talabalarga o‘z fikrlarini erkin va ochiq bildirish imkonini beradi. Ishtirokni oshirish maqsadida universitet rasmiy kanallari, guruhlar va e’lonlar orqali targ‘ibot ishlari olib boriladi. Belgilangan muddat davomida yig‘ilgan ma’lumotlar ta’lim sifati nazorati bo‘limi tomonidan umumlashtiriladi.

Natijalarni tahlil qilish bosqichi alohida ahamiyatga ega. Yig‘ilgan ma’lumotlar statistik va sifat jihatdan tahlil qilinib, asosiy muammolar, takrorlanayotgan

kamchiliklar hamda talabalar ehtiyojlari aniqlanadi. Tahlil natijalari asosida hisobot tayyorlanadi, unda kuchli tomonlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar keltiriladi. Zarur hollarda natijalar fakultetlar yoki yo‘nalishlar kesimida ham ko‘rib chiqiladi.

So‘rovnoma natijalari universitet rahbariyati va tegishli bo‘limlarga taqdim etilib, amaliy choralar ishlab chiqiladi. Bu choralar infratuzilmani yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish, ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish va talabalar uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratiladi. Amalga oshirilgan ishlar keyingi yilgi so‘rovnoma natijalari bilan solishtirilib, o‘zgarishlar samaradorligi baholanadi.

2.2.Professor-o‘qituvchilar uchun:

Universitetda professor-o‘qituvchilarning fikr-mulohazalarini tizimli ravishda o‘rganish, ularning ish faoliyati samaradorligini oshirish hamda ta’lim sifatini yaxshilash maqsadida ikki turdagi so‘rovnomalar muntazam tashkil etiladi. Bular — “Ish faoliyatidan qoniqish va akademik erkinlik” hamda “Ta’lim resurslari va moddiy-texnik baza” nomli so‘rovnomalardir.

“Ish faoliyatidan qoniqish va akademik erkinlik” so‘rovnomasi yiliga bir marta o‘tkazilib, professor-o‘qituvchilarning mehnat sharoitlari, ish yuklamasi, boshqaruv tizimi, akademik erkinlik darajasi, ilmiy faoliyat uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda ichki muhitga oid fikrlarini aniqlashga qaratiladi. So‘rovnoma savollari mazkur yo‘nalishlarni qamrab olgan holda ishlab chiqiladi va ishtirokchilarga qulaylik yaratish maqsadida Telegram botlari hamda Google Forms platformalari orqali tarqatiladi. Jarayon anonim tarzda tashkil etilib, o‘qituvchilarga o‘z fikrlarini erkin va xolis bildirish imkoniyati yaratiladi. Yig‘ilgan ma’lumotlar maxsus ishchi guruh tomonidan tahlil qilinib, asosiy muammolar, tizimli kamchiliklar va rivojlanish ehtiyojlari aniqlanadi. Natijalar asosida hisobot tayyorlanib, unda ish sharoitlarini yaxshilash, akademik erkinlikni kengaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

“Ta’lim resurslari va moddiy-texnik baza” so‘rovnomasi esa har semestr yakunida o‘tkazilib, ta’lim jarayonini ta’minlovchi infratuzilma va resurslar holatini baholashga xizmat qiladi. Ushbu so‘rovnomada auditoriyalar, laboratoriyalar, kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, texnik jihozlar, internet sifati hamda o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlanganlik darajasi kabi masalalar qamrab olinadi. So‘rovnoma yana raqamli platformalar orqali o‘tkazilib, keng qamrov va tezkorlik ta’minlanadi. Olingan natijalar asosida mavjud kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha tegishli bo‘limlarga aniq vazifalar yuklatiladi.

Har ikki so‘rovnoma natijalari chuqur tahlil qilinib, fakultetlar yoki kafedralar kesimida ham ko‘rib chiqilishi mumkin. Tahlil yakunlari universitet rahbariyatiga taqdim etilib, amaliy choralar rejalashtiriladi va bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Keyingi davr natijalari bilan solishtirish orqali amalga oshirilgan o‘zgarishlarning samaradorligi baholanadi.

2.3. Ish beruvchilar o‘rtasida.

Universitet faoliyatini takomillashtirishda manfaatdor tomonlar fikrini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Shu bois ish beruvchilar va talabalar ota-onalari o‘rtasida alohida-alohida so‘rovnomalar tashkil etish mexanizmi ham joriy etilgan. Mazkur turdagi so‘rovnomalar yiliga kamida bir marta yoki zaruratga qarab (masalan, bitiruvchilar bandligi tahlili jarayonida) o‘tkaziladi. So‘rovnoma savollari mehnat bozori talablari, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko‘nikmalari, soft skills darajasi, moslashuvchanligi hamda ish beruvchilarning umumiy qoniqish darajasini qamrab oladi. So‘rovnoma elektron shaklda — elektron pochta, Telegram botlari, Google Forms yoki hamkor tashkilotlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa shuningdek, zaruratga qarab qog’oz shakli orqali tarqatiladi. Qolaversa har yili Universitetda tshkil qilinayotgan “mehnat yarmarkalari” doirasida ish beruvchi kompaniya vakillari bilan bevosita fikrlar almashinuv va suhbatlar orqali mehnat bozori va ish beruvchilar fikrlari o‘rganiladi.

Jarayonda asosiy e’tibor respondentlar doirasini to‘g‘ri shakllantirishga qaratiladi, ya’ni universitet bitiruvchilarini ishga qabul qilgan tashkilotlar va hamkor korxonalar qamrab olinadi. So‘rovnoma natijalari maxsus ishchi guruh tomonidan tahlil qilinib, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasidagi kamchiliklar, o‘quv dasturlaridagi nomuvofiqliklar va ish beruvchilar ehtiyojlari aniqlanadi. Tahlil asosida o‘quv rejalari va fan dasturlariga o‘zgartirishlar kiritish, amaliyot bazalarini kengaytirish hamda dual ta’lim elementlarini rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

2.4. Ota-onalar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazish mexanizmi.

Talabalar ota-onalari o‘rtasidagi so‘rovnoma odatda yiliga bir marta tashkil etilib, ularning farzandlari ta’lim olayotgan muhit, tarbiya, xavfsizlik, yashash sharoitlari hamda universitet xizmatlaridan qoniqish darajasini aniqlashga qaratiladi. So‘rovnoma savollari talabalarning ijtimoiy himoyasi, turar joy sharoitlari, ma’naviy-ma’rifiy muhit, o‘qitish sifati va kommunikatsiya darajasini qamrab oladi. So‘rovnoma Telegram, SMS-xabarlar, Google Forms yoki ota-onalar yig‘ilishlari orqali tarqatiladi.

Ishtirokchilarga qulaylik yaratish va ochiq fikr bildirish imkonini ta'minlash maqsadida jarayon soddalashtirilgan va imkon qadar anonim shaklda tashkil etiladi. Yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinib, ota-onalar tomonidan bildirilgan taklif va e'tirozlar asosida talabalarga yaratilgan sharoitlarni yaxshilash, xavfsizlikni kuchaytirish hamda ota-onalar bilan muloqotni mustahkamlash bo'yicha choralar belgilanadi.

Har ikki yo'nalishdagi so'rovnomalar natijalari umumlashtirilib, universitet rahbariyatiga taqdim etiladi va strategik qarorlar qabul qilishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali ta'lim jarayoni mehnat bozori talablari va jamiyat ehtiyojlariga yanada moslashtirilib, sifatni uzluksiz oshirish ta'minlanadi.

3. So'rovnoma o'tkazish mexanizmi

3.1. So'rovnomalar asosan zamonaviy raqamli platformalar (HEMIS tizimi, Google Forms yoki maxsus ichki portal) orqali onlayn formatda o'tkaziladi. Bu esa jarayonning shaffofligi, tezkorligi va keng qamrovini ta'minlaydi. Zaruratga ko'ra, Telegram botlari yoki mobil ilovalar orqali ham ishtirok etish imkoniyati yaratiladi. Barcha platformalar foydalanuvchilar uchun qulay interfeysga ega bo'lishi hamda ma'lumotlarni himoyalash talablariga javob berishi lozim.

3.2. So'rovnoma savollari Ta'lim sifati nazorati bo'limi tomonidan ilmiy-metodik yondashuv asosida ishlab chiqiladi. Savollar mazmunan aniq, tushunarli va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, respondentlar fikrini to'liq ifodalashga xizmat qilishi zarur. Zarur hollarda soha mutaxassislari va tegishli bo'limlar jalb etiladi. Tayyorlangan so'rovnoma O'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan ko'rib chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

3.3. So'rovnoma o'tkazilishi haqida respondentlarga kamida **3 kun** oldin rasmiy kanallar orqali xabar beriladi. Xabarnomada so'rovnomaning maqsadi, o'tkazilish muddati, ishtirok etish tartibi hamda ahamiyati haqida batafsil ma'lumot beriladi. Ishtirokni faollashtirish maqsadida eslatmalar yuborilishi mumkin. Shu bilan birga, respondentlarning maxfiyligi va anonimligi kafolatlanishi alohida ta'kidlanadi.

4. Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish

4.1. Yig'ilgan ma'lumotlar avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida statistik tahlil qilinadi va so'rovnomalar natijalari asosida batafsil va tizimli umumiy hisobot tayyorlanadi.

4.2. So'rovnomalar natijalari asosida batafsil va tizimli umumiy hisobot universitet Rektori va Kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi. Mazkur hisobotda aniqlangan asosiy muammolar, kuchli jihatlar, rivojlanish tendensiyalari hamda ularni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar o'z

aksini topadi. Hisobot natijalari universitet boshqaruvida strategik qarorlar qabul qilishda muhim analitik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, so‘rovnoma yakunlari bo‘yicha xulosalar chiqarish, tahlil natijalarini manfaatdor tomonlarga yetkazish hamda jarayonning ochiqligi va shaffofligini ta’minlash maqsadida natijalar keng jamoatchilikka e’lon qilinadi. Xususan:

universitetning rasmiy veb-sahifasi – tsuos.uz,

Facebook (fb.com/tsuos.uz),

Instagram (instagram.com/tsuos.uz),

Twitter (http://twitter.com/tsuos_uz),

YouTube (youtube.com/c/tsuosuz),

Telegram https://t.me/tsuos va “Sharqdan xabarlar” kabi rasmiy kanallari, shuningdek universitetning haftalik dayjestlari orqali muntazam ravishda yoritib boriladi. Zaruratga ko‘ra, boshqa axborot platformalari va ommaviy kommunikatsiya vositalaridan ham foydalanilishi mumkin.

4.3. Shaxsiy ko‘rsatkichlar (masalan, konkret o‘qituvchining reytingi) faqat xizmat doirasida foydalanish uchun kafedra mudiri va dekanatga beriladi.

5. Natijalar asosida choralar ko‘rish

5.1. So‘rovnoma natijalari universitet faoliyatini takomillashtirishda muhim analitik asos bo‘lib xizmat qiladi. Avvalo, ular professor-o‘qituvchilarning yillik reytingini shakllantirishda asosiy mezonlardan biri sifatida qo‘llaniladi. Talabalar va o‘qituvchilarning fikr-mulohazalari orqali pedagoglarning dars o‘tish sifati, muloqot madaniyati, akademik mas’uliyati hamda innovatsion yondashuvlari baholanadi va bu ko‘rsatkichlar reyting tizimida inobatga olinadi. Bundan tashqari, so‘rovnoma natijalari o‘quv dasturlarini takomillashtirish uchun muhim manba hisoblanadi. Talabalar va professor-o‘qituvchilarning takliflari asosida fanlar mazmuni yangilanadi, amaliy komponentlar kuchaytiriladi hamda zamonaviy talablar va mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtiriladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va bitiruvchilarning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, olingan ma’lumotlar universitetning moddiy-texnik bazasini yaxshilashda ham keng qo‘llaniladi. Xususan, kutubxona fondini boyitish, Wi-Fi tarmog‘i sifatini oshirish, oshxona va boshqa ijtimoiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bu orqali talabalar va o‘qituvchilar uchun yanada qulay va samarali ta’lim muhiti yaratiladi.

So‘rovnoma natijalari yana professor-o‘qituvchilar uchun maqsadli malaka oshirish kurslarini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aniqlangan ehtiyoj

va kamchiliklardan kelib chiqib, pedagoglar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalardan foydalanish, ilmiy tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan trening va seminarlar yo‘lga qo‘yiladi.

6. Mas’ul tomonlar

6.1. Ta’lim sifati nazorati bo‘limi so‘rovnomalarni rejalashtirish, ularning mazmunini ishlab chiqish, o‘tkazish jarayonini muvofiqlashtirish hamda natijalarni xolis va chuqur tahlil qilish uchun mas’ul hisoblanadi. Shuningdek, ushbu bo‘lim tomonidan tahlil natijalari asosida umumlashtirilgan hisobotlar tayyorlanadi, muammoli jihatlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha aniq taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqiladi.

6.2. Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi so‘rovnomalarni o‘tkazishda foydalaniladigan platformalarning uzluksiz va barqaror ishlashini ta’minlaydi. Markaz tomonidan texnik qo‘llab-quvvatlash, tizim sozligi, ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarining ishonchliligi hamda axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishi kafolatlanadi. Shu bilan birga, foydalanuvchilar uchun qulay interfeys yaratish va texnik nosozliklarning oldini olish ham ushbu markaz zimmasiga yuklatiladi.

6.3. Dekanatlar va kafedralar so‘rovnomalarda respondentlar ishtirokini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ular tomonidan talaba va professor-o‘qituvchilar o‘rtasida targ‘ibot ishlari olib borilib, kamida 70–80 foiz qamrovga erishish choralarini ko‘rish zarur. Bundan tashqari, dekanatlar so‘rovnoma jarayonining o‘z vaqtida o‘tkazilishini nazorat qiladi, ishtirokni rag‘batlantiradi hamda natijalar asosida fakultet miqyosida zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

6.4. Murojaatlar bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi hamda **Korrupsiyaga qarshi kurashish «komplaens-nazorat» tizimini boshqarish bo‘limi** vakillari ham so‘rovnomadagi savollar tarkibini shakllantirish va natijalarni tahlil qilishda bevosita ishtirok etadi

Eslatma: So‘rovnoma natijalari o‘qituvchini asossiz jazolash uchun emas, balki tizimdagi kamchiliklarni tuzatish va rivojlantirish uchun xizmat qilishi shart.